

XII. DEMOGRAFIK HOLAT VA O‘RTACHA ISH HAQI

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2025- yilning yanvar-mart holatiga viloyat doimiy aholisining soni 4 162,3 ming kishini tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan 82,8 ming kishiga yoki 2,0 %ga ko‘paydi. Shundan, 2 363,5 ming kishi - shahar joylarida (jami aholi sonining 56,8 %) va 1 798,8 ming kishi - qishloq joylarida (43,2 %) istiqomat qiladi.

Viloyat hududi va aholi zichligi


(2025- yil 1- aprel holatiga)

	<i>tashkil topgan sana</i>	<i>hududi, ming kv. km</i>	<i>doimiy aholi soni, ming kishi</i>	<i>1 kv. km ga aholi zichligi, kishi</i>
Viloyat bo‘yicha	15.01.1938	6,759	4 162,3	615,8
<i>shaharlar:</i>				
Farg‘ona	1877- yil	0,108	330,0	3 051,0
Qo‘qon	X asr	0,064	315,0	4 895,9
Quvasoy	14.06.1954- yil	0,264	103,6	392,4
Marg‘ilon	X asr	0,052	258,8	4 975,0
<i>tumanlar:</i>				
Oltiariq	29.09.1926- yil	0,631	234,0	370,9
Qo‘shqepa	16.04.1952- yil	0,366	214,4	585,2
Bag‘dod	31.12.1964- yil	0,333	239,2	717,4
Buvayda	26.12.1973- yil	0,279	254,0	910,4
Beshariq	29.09.1926- yil	0,774	248,0	320,5
Quva	10.02.1939- yil	0,438	281,7	642,9
Uchko‘prik	29.09.1926- yil	0,271	248,2	915,5
Rishton	09.01.1967- yil	0,307	222,1	722,7
So‘x	27.02.1990- yil	0,221	86,5	391,9
Toshloq	12.04.1973- yil	0,243	222,9	918,6
O‘zbekiston	17.04.1963- yil	0,674	242,1	359,2
Farg‘ona	22.02.1964- yil	0,594	227,0	382,1
Dang‘ara	07.12.1970- yil	0,427	181,9	426,3
Furqat	09.04.1992- yil	0,305	130,3	426,8
Yozyovon	27.12.1980- yil	0,407	122,6	301,2

Farg‘ona viloyatining ma’muriy-hududiy tashkil topishi 1938-yilning 15-yanvaridan boshlanadi. Hududi 6,759 ming kvadrat kilometrni tashkil etadi yoki mamlakatimiz hududining 1,5 foiziga teng. Viloyatimiz shimoldan Namangan viloyati, sharqdan Andijon viloyati, janub tomondan Qirg‘iziston Respublikasining O‘sh hamda Batken viloyatlari va g‘arbdan Tojikiston Respublikasining Xo‘jand viloyati bilan chegaradosh. Viloyatning So‘x tumani hamda Farg‘ona tumanining Shohimardon va Yordon, Rishton tumanining Cho‘ng‘ara qishloqlari viloyat, Respublika hududidan tashqarida, Qirg‘iziston Respublikasi hududida joylashgan.

Farg'ona viloyati bo'yicha aholi zichligi

2025- yil 1-aprel holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi



Farg'ona viloyatida 2025- yil 1- aprel holatiga 1 kvadrat kilometr ga o'rtacha 615,8 kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda 12,2 kishiga ortgan (2024- yil 1- aprelda 1 kv.km.ga 603,6 kishi).

Hududlar bo'yicha qaraydigan bo'lsak, aholi zichligining eng yuqori ko'rsatkichi Marg'ilon shahrida 4 975,0 kishi, Qo'qon shahrida 4 895,9 kishi, Farg'ona shahrida 3 051,0 kishi, Toshloq tumanida 918,6 kishi, Uchko'prik tumanida 915,5 kishi, Buvayda tumanida 910,4 kishini tashkil etgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar Yozyovon tumani 301,2 kishi, Beshariq tumanida 319,4 kishi, O'zbekiston tumanida 356,7 kishi, Oltiariq tumanida 320,5 kishi, Farg'ona tumanida 382,1 kishini tashkil etgan.

Viloyat ma'muriy hududiy bo'linishiga ko'ra 4 ta viloyat miqyosidagi shahar, 15 ta tuman, 5 ta tumanlar tasarrufidagi shaharlar, 194 ta shahar tipidagi posyolkalar, 1 000 ta qishloq aholi yashash punktlari hamda 1 062 ta mahalla fuqarolar yig'inlaridan tashkil topib, ularda 4 162,3 ming nafar aholi istiqomat qiladi. Viloyatning ma'muriy markazi Farg'ona shahridir.

Viloyatning iqlimi keskin kontinental, quruq. Tog' tizmalari Farg'ona vodiysiga sovuq havoning kirib kelishini to'sib turganligi bois, qishda ob-havo bir muncha mo'tadil. Yozi issiq, iyulning o'rtacha harorati 27,5°S, qishi nisbatan sovuq, yanvarning o'rtacha harorati -3°S. Vegetatsiya davri 217 kun, yillik o'rtacha yog'in miqdori 200-250 mm.ni tashkil etadi.

Farg'ona viloyati hududlari bo'yicha doimiy aholi soni to'g'risida ma'lumot (2025- yilning 1- aprel holatiga)

	Doimiy aholi soni, ming kishi			Doimiy aholi sonining o'sish sur'ati, %da		
	jami	shu jumladan:		jami	shu jumladan:	
		shahar	qishloq		shahar	qishloq

Farg'ona viloyati	4 162,3	2 363,5	1 798,8	102,0	56,8	43,2
<i>shaharlar:</i>						
Farg'ona	330,0	330,0	0,0	102,1	100,0	0,0
Qo'qon	315,0	315,0	0,0	101,8	100,0	0,0
Quvasoy	103,6	58,1	45,5	102,0	56,1	43,9
Marg'ilon	258,8	258,8	0,0	101,7	100,0	0,0
<i>tumanlar:</i>						
Oltiariq	234,0	175,1	58,9	102,0	74,8	25,2
Qo'shtepa	214,4	82,4	132,0	102,4	38,4	61,6
Bag'dod	239,2	122,0	117,2	102,2	51,0	49,0
Buvayda	254,0	114,4	139,6	102,3	45,0	55,0
Beshariq	248,0	86,6	161,4	101,8	34,9	65,1
Quva	281,7	130,2	151,5	101,8	46,2	53,8
Uchko'prik	248,2	47,9	200,3	102,3	19,3	80,7
Rishton	222,1	141,3	80,8	102,0	63,6	36,4
So'x	86,5	54,3	32,2	102,7	62,8	37,2
Toshloq	222,9	52,8	170,1	102,0	23,7	76,3
O'zbekiston	242,1	109,7	132,4	102,0	45,3	54,7
Farg'ona	227,0	140,4	86,6	102,0	61,9	38,1
Dang'ara	181,9	40,2	141,7	102,2	22,1	77,9
Furqat	130,3	31,3	99,0	102,0	24,0	76,0
Yozyovon	122,6	73,0	49,6	102,0	59,5	40,5

Shaharlar ichida eng ko‘p aholi Farg‘ona shahrida 330,0 ming kishi (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 2,1 %ga o‘sgan) va tumanlarda eng ko‘p aholi Quva tumanida bo‘lib 281,7 ming kishini tashkil qiladi (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 1,8 %ga o‘sgan).

Doimiy aholining yashash joyi bo‘yicha taqsimlanishi

Shahar

Qishloq




56,8%

43,2%

Aholining yosh guruhlari va jinsi bo‘yicha taqsimlanishi


2025- yil 1- yanvar holatiga



2025- yil 1- yanvar holatiga Farg‘ona viloyatining doimiy aholisi tarkibini jinsi va yosh guruhlari bo‘yicha (65 yoshgacha bo‘lganlar 5 yillik yosh intervalida, 65 va undan yuqori yoshdagilar esa jamlangan holda) tahlil qilinganda, erkaklar tarkibida 4 yoshgacha bo‘lgan bolalar eng yuqori ko‘rsatkichni, ya’ni 257,5 ming kishini tashkil etgan. Erkaklar tarkibida eng kam aholi soni 60-64 yoshlilar hissasiga to‘g‘ri kelib, 79,1 ming kishini tashkil etdi. Shuningdek, ayollar tarkibida ham 4 yoshgacha bo‘lgan qizlar eng yuqori ko‘rsatkichni, ya’ni 240,8 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, eng kam ayollar soni 60-64 yoshlilar hissasiga to‘g‘ri kelgan, ya’ni 86,8 ming kishini tashkil etgan.

Doimiy aholi sonining taqsimlanishi

2025- yil 1-aprel holatiga



2 100,8 ming kishi

2 061,5 ming kishi


Yanvar-mart oylarida viloyat bo‘yicha

aholining tabiiy harakati koeffitsiyentlari

<i>Ko‘rsatkichlar</i>	<i>ming kishi</i>		<i>1000 aholiga nisbatan</i>	
	<i>2024- yil</i>	<i>2025- yil</i>	<i>2024- yil</i>	<i>2025- yil</i>
Tug‘ilganlar	22,9	22,4	22,6	21,9
O‘lganlar	4,2	4,4	4,1	4,3
Nikohlar, <i>mingta</i>	4,1	3,8	4,1	3,7
Ajralishlar, <i>mingta</i>	1,2	1,2	1,2	1,2

Aholining tabiiy harakati koeffitsiyenti

(2025- yilning yanvar-mart holatiga (1 000 aholiga nisbatan, promille))



Tug'ilish darajasi. 2025- yilning yanvar–mart oylari tug'ilganlar soni 22,4 ming kishini tashkil etdi va 2024- yilning shu davriga (22,9 ming kishi) nisbatan 0,5 ming kishiga kamaydi, shunga mos ravishda tug'ilish koeffitsiyenti 21,9 promilleni tashkil qildi.

Tug'ilish darajasining ko'payishi viloyatning Yozyovon tumanida 20,0 dan 22,0 promille, kamayishi esa Qo'qon shahrida 24,5 dan 21,3 promille va Bag'dod tumanida 23,6 dan 21,8 promillega kuzatildi.

O'lim darajasi. 2025-yilning yanvar-mart oylarida o'lganlar soni 4 405 kishini tashkil qildi va 2024- yilning shu davriga (4 168 kishi) nisbatan 237 kishiga ko'paygan. Mos ravishda o'lim koeffitsiyenti 4,3 promilleni tashkil qildi (2024- yil yanvar-mart oylarida 4,1 promille).

O'lganlar sonining ko'payishi viloyatimizning ba'zi shahar va tumanida yuz bergan bo'lib, eng ko'p o'lim Farg'ona shaharda 420 kishidan 5,2 promille, Qo'qon shaharda 368 kishidan 4,7 promille, Quva tumanida 307 kishidan 4,4 promille, Marg'ilon shaharda 300 kishidan 4,7 promille, O'zbekiston tumanida 267 kishidan 4,5 promille kuzatildi.

O'lganlar umumiy sonining 61,5 %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 9,0 %i o'sma kasalliklaridan, 4,5 %i ovqat hazm qilish organlari kasalliklaridan, 4,9 %i baxtsiz hodisadan, 5,1 %i nafas olish organlari kasalliklaridan, 0,8 %i – yuqumli va parazitlar kasalliklaridan va 14,2 %i boshqa sabablarga ko'ra vafot etgan.

Nikohlar va ajralishlar. 2025-yilning yanvar-mart oylari shahar, tuman hokimliklarining FHDYo bo‘limlarida **3 799** ta nikohlar va **1 241** ta ajralishlar ro‘yxatga olindi. Ming aholiga nisbatan **3,7** ta nikoh (2024- yilning tegishli davrida **4,1** ta) va **1,2** ta ajralishlar (2024- yilning tegishli davrida **1,2** ta) to‘g‘ri keladi.

Yanvar-mart oylarida tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni

(birlikda)

	<i>Tuzilgan nikohlar</i>		<i>Nikohdan ajralishlar</i>	
	<i>2024-yil</i>	<i>2025-yil</i>	<i>2024-yil</i>	<i>2025-yil</i>
Viloyat	4 104	3 799	1 188	1 241
<i>shaharlar:</i>				
Farg‘ona	278	241	137	151
Qo‘qon	353	318	127	128
Quvasoy	74	84	32	37
Marg‘ilon	172	147	64	89
<i>tumanlar:</i>				
Oltiariq	241	230	59	64
Qo‘shtepa	141	149	34	50
Bag‘dod	210	211	61	70
Buvayda	212	239	60	58
Beshariq	347	358	79	54
Quva	268	237	54	70
Uchko‘prik	200	191	61	60
Rishton	256	215	60	61
So‘x	257	215	33	13
Toshloq	154	146	56	55
O‘zbekiston	249	248	79	70
Farg‘ona	250	202	71	92
Dang‘ara	205	181	56	43
Furqat	149	93	39	39
Yozyovon	88	94	26	37

Migratsiya. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilning yanvar-mart oylarida viloyatga ko'chib kelganlar soni **3 542** kishini, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa **3 962** kishini tashkil qildi. Migratsiya saldosi minus 420 kishiga (2024-yilning shu davrida minus **699** kishi) teng bo'ldi. Eng katta minus qoldiqlar Marg'ilon shahri (minus **201**) va O'zbekiston tumani (minus **183**) kuzatildi.

Yanvar-mart oylarida aholining migratsiya ko'rsatkichlari


(kishi)

	Kelganlar		Ketganlar		Migratsiya saldosi	
	2024-yil	2025-yil	2024-yil	2025-yil	2024-yil	2025-yil
Viloyat	2 194	3 542	2 893	3 962	-699	-420
<i>shaharlar</i>						
Farg'ona	866	1 082	592	613	274	469
Qo'qon	77	577	277	474	-200	103
Quvasoy	118	122	91	123	27	-1
Marg'ilon	11	220	376	421	-365	-201
<i>tumanlar</i>						
Oltiariq	58	47	91	153	-33	-106
Qo'shtepa	206	200	74	186	132	14
Bag'dod	3	39	75	128	-72	-89
Buvayda	33	32	78	117	-45	-85
Beshariq	33	65	172	179	-139	-114
Quva	82	105	172	211	-90	-106
Uchko'prik	20	96	94	141	-74	-45
Rishton	51	88	133	137	-82	-49
So'x	97	151	34	44	63	107
Toshloq	96	121	113	167	-17	-46
O'zbekiston	14	112	118	295	-104	-183
Farg'ona	204	206	199	235	5	-29
Dang'ara	103	144	93	175	10	-31
Furqat	89	88	62	98	27	-10
Yozyovon	33	47	49	65	-16	-18

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025- yilning yanvar-mart oylarida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **4 203,0** ming so'mni tashkil qildi va 2024- yilning shu davriga nisbatan **13,7%**ga o'sdi. Eng yuqori o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi Farg'ona shahrida **5 658,6** ming so'mni, Qo'qon shahrida **4 371,9** ming so'mga to'g'ri keldi.


Yanvar-mart oylari davomida o'rtacha nominal hisoblangan ish haqi

(ming so'mda)



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi

(2025- yil yanvar-mart, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz ming so'mda)



O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining eng yuqori miqdori moliya va sug‘urta faoliyatiga to‘g‘ri kelib **9 813,0** ming so‘mni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich qurilishda **3 361,7** ming so‘m, sanoatda **4 665,3** ming so‘m va ta‘lim sohasida **3 528,2** ming so‘mdan iborat bo‘ldi.

O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**

(yanvar-mart oylari qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, ming so‘mda)

	2024-yil	2025-yil	O‘sinh sur‘ati %
Viloyat	3 695,6	4 203,0	113,7
<i>shaharlar:</i>			
Farg‘ona	5 009,3	5 658,6	113,0
Qo‘qon	4 051,3	4 371,9	107,9
Quvasoy	3 830,8	4 067,2	106,2
Marg‘ilon	3 141,1	3 541,7	112,8
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	2 849,7	3 131,3	109,9
Qo‘shtepa	3 083,7	3 586,2	116,3
Bag‘dod	3 111,4	3 341,1	107,4
Buvayda	2 863,4	3 584,9	125,2
Beshariq	2 707,1	3 371,8	124,6
Quva	2 758,0	3 181,9	115,4
Uchko‘prik	3 396,6	3 882,3	114,3
Rishton	2 912,8	3 720,1	127,7
So‘x	3 209,1	3 473,9	108,3
Toshloq	4 069,0	4 797,1	117,9
O‘zbekiston	3 025,6	3 385,4	111,9
Farg‘ona	2 694,2	3 100,4	115,1
Dang‘ara	3 067,2	3 441,7	112,2
Furqat	2 987,2	3 543,6	118,6
Yozyovon	3 083,5	3 441,2	111,6

***(qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)*